QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# 2021- yil yanvar-avgust oylari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish ishlari

**Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 3031,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

**11,2 %** Yirik qurilish tashkilotlari

**67,8 %** Kichik korxona va mikrofirmalar

**21,0 %** Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

**7,0 %** davlat mulki

**93,0 %** nodavlat mulk

***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu - o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## 2021- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

*Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 338,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,3 % punktga ko'payib, 11,2 % ni tashkil etdi.*






***Ma'lumot uchun**: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 52,1 %, yoki 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 153,7 %), Taxiatosh (ulushi 47,7 %, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 293,8 %), Qorao'zak tumani (ulushi 43,7 % yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,3 martaga ko'p) ga to'g'ri keldi.*








## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi



2021- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **67,8 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **7,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etgan holda **2057,0** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da






***Ma’lumot uchun:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri 913,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 89,0 %, Mo‘ynoq tumani (174,8 mlrd. so‘m, ulushi 89,9 %), To‘rtko‘l (187,1 mlrd. so‘m, ulushi 67,3 %) va Qo‘ng‘irot (105,0 mlrd. so‘m, ulushi 38,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.*



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,0 % ni tashkil etdi yoki 635,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 164,0 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **212,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2818,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **7,0** % va **93,0** % ni tashkil etdi.





## 2021- yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | 3031,3 | 110,5 | 100,0 |
| Nukus sh. | 1026,9 | 105,3 | 33,9 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 155,1 | 138,2 | 5,1 |
| Beruniy | 140,7 | 104,0 | 4,6 |
| Bo‘zotov | 44,5 | 100,9 | 1,5 |
| Qorao‘zak | 92,6 | 185,4 | 3,0 |
| Kegeyli | 54,5 | 113,7 | 1,8 |
| Qo‘ng‘irot | 276,2 | 100,9 | 9,1 |
| Qonliko‘l | 52,0 | 104,3 | 1,7 |
| Mo‘ynoq | 194,5 | 100,8 | 6,4 |
| Nukus | 123,7 | 104,8 | 4,1 |
| Taxiatosh | 167,8 | 138,9 | 5,5 |
| Taxtako‘pir | 60,2 | 106,1 | 2,0 |
| To‘rtko‘l | 278,0 | 116,7 | 9,2 |
| Xo‘jayli | 102,0 | 100,7 | 3,4 |
| Chimboy | 67,2 | 134,9 | 2,2 |
| Shumanay | 69,0 | 106,4 | 2,3 |
| Ellikqal’a | 126,4 | 112,9 | 4,2 |



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

**72,0 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurilishiga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,0 % i yoki **2183,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **251,8** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 74,4 % ni tashkil etdi.

**74,4 %**

**65,3 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1344,3** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,3 % ni tashkil etdi

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **587,0** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 92,3 % ni tashkil etdi.

**92,3 %**

***Ma’lumot uchun: Yangi qurilish*** *– yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .*



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari



*ulushi, % da*

| | 2020- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust |
|---|---|---|
| Bino va inshootlarni qurilishi | 63,1 | 67,6 |
| Fuqarolik obyektlarini qurilishi | 19,9 | 20,1 |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 16,9 | 12,3 |



***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,4** % ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,6** % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **10,8** % punktga kamayib, **63,6** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **9,2** % punktga ko‘payib, **31,0** % ni tashkil etdi.









# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **25,3 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **74,7 %** (**4,3 %** punktga ko‘paydi) ni tashkil etdi.








## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,5 %** punktga ko‘paydi va **19,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **80,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,5 %** punktga kamaydi.







2020- yil yanvar-avgust
2021- yil yanvar-avgust





# Korxonalar turlari bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-avgust

mlrd. so‘m

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 3031,3 | 338,5 | 2057,0 | 635,8 |
| Nukus sh. | 1026,9 | 56,7 | 913,4 | 56,8 |
| tumanlar: | | | | |
| Amudaryo | 155,1 | 0,0 | 67,4 | 87,7 |
| Beruniy | 140,7 | 0,0 | 56,6 | 84,1 |
| Bo‘zotov | 44,5 | 0,0 | 38,7 | 5,8 |
| Qorao‘zak | 92,6 | 40,5 | 36,1 | 16,0 |
| Kegeyli | 54,5 | 6,6 | 26,6 | 21,3 |
| Qo‘ng‘irot | 276,2 | 144,0 | 105,0 | 27,2 |
| Qonliko‘l | 52,0 | 0,1 | 28,1 | 23,8 |
| Mo‘ynoq | 194,5 | 4,1 | 174,8 | 15,6 |
| Nukus | 123,7 | 0,1 | 73,7 | 49,9 |
| Taxiatosh | 167,8 | 80,1 | 68,0 | 19,7 |
| Taxtako‘pir | 60,2 | 0,0 | 52,6 | 7,6 |
| To‘rtko‘l | 278,0 | 0,0 | 187,1 | 90,9 |
| Xo‘jayli | 102,0 | 0,2 | 60,3 | 41,5 |
| Chimboy | 67,2 | 0,0 | 38,3 | 28,9 |
| Shumanay | 69,0 | 0,1 | 57,3 | 11,6 |
| Ellikqal’a | 126,4 | 6,0 | 73,0 | 47,4 |

# Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining respublikadagi ulushi






***Ma'lumot uchun:*** *Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 33,9 %, Qo'ng'irot tumani -9,1 %, To'rtko'l tumani – 9,2 % va Mo'ynoq tumani – 6,4 % ga to'g'ri keldi.*



Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: *(61) 224-92-14*
*(61) 222-75-91*